

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUVALIYEV XAYITBOY ABDUG‘ANIYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA AHOLI MANZILGOHLARINI HUDUDIIY TASHKIL
ETILISHINI TAKOMILLASHTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
географическим наукам (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor
geographical sciences (DSc)**

Abduvaliyev Xayitboy Abdug‘aniyevich

О‘zbekistonda aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini
takomillashtirishning geografik jihatlarini 3

Абдувалиев Хайитбой Абдуганиевич

Географические аспекты совершенствования территориальной организации
населённых пунктов в Узбекистане 29

Abduvaliev Khayitboy Abduganiyevich

Geographical aspects of improving the territorial organization of settlements in
Uzbekistan 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUVALIYEV XAYITBOY ABDUG‘ANIYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA AHOLI MANZILGOHLARINI HUDUDIIY TASHKIL
ETILISHINI TAKOMILLASHTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Gr45 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Komilova Nilufar Qarshiboyevna
geografiya fanlari doktori, professor

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Isayev Akbarjon Abdulxamidovich
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-avgust soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 62-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 7-avgustdagi 13-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. PhD, dotsent

Q.S. Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi manzilgohlarining aksariyati qulay tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarda tashkil etilgan bo'lib, aholi sonining ortishi hisobiga yangi, lekin tabiiy geografik sharoiti yashash uchun u qadar qulay bo'lmagan hududlar miqdori ortib bormoqda. Buning ustiga qulay tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarni kishilik jamiyati fan va texnikaning imkoniyatlaridan foydalanib, tobora chuqurroq o'zlashtirmoqda. Bu jarayonda hududlarning tabiiy geografik imkoniyatlarini to'liq hisobga olinmasligi aholi maskanlarida hududlarga xos ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida «Shaharlar va aholi punktlarining ochiqqligini, xavfsizligini, umri boqiyiligi va barqarorligini ta'minlash»¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida tabiiy geografik imkoniyatlari qulay bo'lgan, hududlari cheklangan mintaqalarda kompleks geografik tadqiqotlarni amalga oshirish, hududlarda aholini optimal joylashtirish asosidagi kompleks tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, ayniqsa, aholi soni ortib borayotgan, aholi maskanlarning qulaylik darajasi borgan sari yomonlashib borayotgan hududlar monitoringini olib borish, ularning tabiiy geografik sharoitiga zarar yetkazmagan holda ijtimoiy-ekologik vaziyatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, yangi aholi manzilgohlarini joylashtirishda ularning qulay tabiiy geografik imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, bunday hududlarni aniqlashda zamonaviy GAT texnologiyalari orqali ma'lumotlar bazasini yaratish, aholi sonining tabiiy demografik imkoniyatlarga mutanosibligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda aholi maskanlarini hududiy tashkil qilish, jumladan, yangi aholi manzilgohlari qurish, shaharlar ekotizimini yaxshilash, yo'ldosh shaharlar rivojlanishiga sharoit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» Strategiyasi to'g'risidagi Farmonida «Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish»² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, tuman va shaharlar bo'yicha hududiy dasturlarni amalga oshirish, hududlarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini takomillashtirish, shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini oshirish, aholini joylashtirishning bosh sxemalarini ishlab chiqish, aholining hududiy joylashuvini takomillashtirish, ijtimoiy-ekologik jihatdan xavfsiz hududlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni

to'g'risida»gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risidagi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 30-oktabrdagi 301-son «Qishloq aholi punktlari yerlaridan foydalanish tartibi to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish”, V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Mamlakatlarda aholi va aholi punktlarining joylanishi va rivojlanishining iqtisodiy-geografik omillari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Harvard University (AQSh), Alabama University (AQSh), University of Oxford – Department of Social Policy and Intervention (Buyuk Britaniya), Max Planck Institute for Demographic Research (Germaniya), Federal Institute for Population Research (Germaniya), Institut National d'Études Démographiques (Fransiya), Netherlands Interdisciplinary Demographic Institute (Niderlandiya), Tokyo University (Yaponiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Geografiya institutida (Rossiya) va boshqalarda olib borilmoqda.

Aholining turli hududlarda joylanishi va rivojlanishining iqtisodiy geografik omillariga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: mamlakat va hududlarning demografik salohiyati, aholi punktlarining sifat jihatdan rivojlanishi asosida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ilmiy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan (Max Planck Institute for Demographic Research, Germaniya); aholini hududiy tashkil etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va boshqarish, aholi punktlarini to'g'ri tashkil etishning ijtimoiy-ekologik tamoyillari ishlab chiqilgan (UN-Habitat – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi Punktlari bo'yicha Agentligi); aholi punktlari joylashuvi va sifati, mehnat resurslarining samarali taqsimoti, ijtimoiy-ekologik tamoyillar asosidagi hududiy boshqaruvni takomillashtirish amalga oshirilgan (German Institute of Urban Affairs, Germaniya); hududlarni ijtimoiy teng va ekologik barqaror rivojlantirish, mehnat zonolari va yashash joylari o'rtasida muvozanat, mahalliy boshqaruv va ekologik rejalashtirish integratsiyasini boshqarishni geoaxborat ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimi ishlab chiqilgan (Centre d'études et d'expertise sur les risques, l'environnement, la mobilité et l'aménagement, Fransiya); aholi punktlari joylashuvi va ularning tabiiy-iqtisodiy

³ Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: URL: <https://www.ined.fr>, <https://www.spi.ox.ac.uk/>, <https://www.demogr.mpg.de>

omillarga bog‘liqligi, hududiy rivojlanish va infratuzilma moslashuvi va shaharlar ierarxiyasi, aglomeratsiyalar va “iqtisodiy klasterlar” modellarini ishlab chiqish yuzasidan baholash metodikasi yaratilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi Geografiya instituti, Rossiya).

Jahonda turli mintaqalarda aholi va aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etishning geografik omillari bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: iqlim va tabiiy geografik sharoit asosida aholi joylashuvini muvofiqlashtirish; urbanizatsiya, aglomeratsiyalar va megashaharlar tizimi, qishloq joylarning degradatsiyasini optimallashtirish; ekologik barqarorlik va yashil hududlar asosida aholi punktlarini tashkil qilish; raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish sharoitlari ta’sirida aholi qayta joylashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aholi va aholi manzilgohlari bilan bog‘liq demografik jarayonlar muammolarini o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlar J.Graunt, A.Giyyar, V.Petti va MDH mamlakatlari olimlari V.A.Borisov, A.I.Sherbakov, B.S.Urlanis, V.V.Pokshishevskiy, L.L.Kozlova, A.A.Axmetova, S.I.Islamovlarning ishlarida keltirilgan.

Aholini ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish, uni hududiy tashkil etishga oid tadqiqotlar N.N.Baranskiy, Y.A.Simagin, V.P.Maksakovskiy, Y.G.Saushkin, S.A.Kovalev, B.S.Xorev, A.I.Alekseyevlar shug‘ullanishgan. O‘zbekistonda aholishunoslik, oila demografiyasi, shaharlar va aholi geografiyasi, mehnat va aholi bandligi masalalari M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Axmedov, Q.X.Abduraxmonov, O.B.Ata-Mirzayev, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, B.X.Umurzaqov, G.R.Asanov, Z.Raimjonov, M.R.Bo‘riyeva, Z.N.Tojiyeva, R.B.Qodirov ishlarida keltirilgan.

Bevosita aholi va aholi maskanlarini hududiy tashkil etishda tabiiy-geografik omillarga e’tibor berish masalalari bilan A.E.Probst, A.Chistabayev, Z.Akramov, A.Soliyev, Y.Ahmadaliyev, T.Mallaboyev, Sh.Jumaxanov, Sh.Sharipov, X.Oblaqulov, O.Sherxolov kabi tadqiqotchilar shug‘ullanishgan. Aholi joylashuvining hududiy xususiyatlari borasidagi amaliy ishlarda Markaziy Osiyoda demografik jihatdan alohida o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekiston aholisini hududiy tashkil etish masalalari doimo o‘z dolzarbligini saqlab kelgan. Bunda esa tabiiy-geografik omillardan hududning suv bilan ta’minlanganligining aholi joylashuviga ta’siri ko‘proq o‘rganilgan.

Biroq, alohida ta’kidlash lozimki, yuqoridagi tadqiqotlarning ko‘pchiligida aholining joylanishidagi tabiiy-geografik omillarning barchasi o‘zaro uzviy aloqadorlikda olib borilmagan, xususan aholining landshaftlardagi joylanishi, sig‘imi va landshaftning umumiy aholililik darajasi tahlil va tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiyada O‘zbekiston aholisi va aholi maskanlarining landshaft turlari bo‘yicha joylashuvi hamda tabiiy-landshaft omilining aholi joylashuviga ta’siri tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-7-29 raqamli

“Farg‘ona vodiysi tabiiy resurslari, ulardan oqilona foydalanish va yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘llari” (2020-2024) amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston aholi maskanlarida aholining hududiy joylashuvini tabiiy-geografik omillar asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Aholini hududiy tashkil etish nazariyasida tabiiy-geografik omilning roli va ahamiyatini tahlil etish, mavjud uslubiyotlarni takomillashtirish;

O‘zbekiston landshaft turlari va ma‘muriy-hududiy birliklar asosidagi aholi zichligining real holatlarini kartografik, statistik tahlili asosida hisoblash;

Aholini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda hududlarning tabiiy-geografik imkoniyatlaridan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

Shaharsozlik nuqtai-nazardan aholi joylashuvi masalalarini tahlil etish, yo‘ldosh shaharlar tashkil etishning ijtimoiy-ekologik mazmunini aniqlash;

Aholining balandlik mintaqalari bo‘yicha joylanishidagi tafovutlarni aniqlash;

Aholini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning strategik rejalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi geografik axborotlar bazasini (xarita, jadval, tasnif) yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida aholi manzilgohlari joylashuvi olingan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud aholi manzilgohlarida hududiy tashkil etilishni takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, rayonlashtirish, geografik taqqoslash, statistik, matematik modellashtirish, GAT hamda kartografik usullardan foydalanilgan. Shuningdek, ma‘muriy hududlar aholi soni va uning joylanishi bilan bog‘liq hududiy xususiyatlarni o‘rganishda tipologik va rayonlashtirish metodi qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi zichligini hisoblashning an‘anaviy ma‘muriy birliklar aholisini uning maydoniga taqsimlash asosidagi uslubi, aholi zichligini ma‘muriy birliklarning sug‘oriladigan yerlari bo‘yicha hisoblash asosida takomillashtirilgan;

aholi zichligini hisoblashda jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida aholi joylashuviga “cheklovchi” ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy omillarni (qoyali, kuchli parchalangan tog‘lar, qum barxanli, suvsiz jazirama cho‘llar) e’tiborga oluvchi yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasida aholining hududiy joylashuviga birlamchi ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy geografik (geomorfologik, iqlimiy, tuproq, gidrologik va gidrogeologik) omillarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash asosida 4 ta landshaft turi aniqlangan;

O‘zbekiston Respublikasi aholi manzilgohlarining balandlik yaruslari bo‘ylab joylanishining tabiiy-geografik qoniniyati tahlil etilgan va aholi yashashi uchun

ijtimoiy-ekologik jihatdan qulay bo'lgan optimal balandlik mintaqasi chegarasi aniqlangan;

respublika aholisining zichligi amaliyotda foydalanib kelinayotgan ma'muriy birliklardan tashqari, aniqlangan landshaft turlari doirasida yangi uslubiyot bo'yicha hisoblab chiqilgan;

aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda har bir landshaft turining tabiiy-demografik imkoniyatidan kelib chiquvchi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aholi zichligini sug'oriladigan yerlar bo'yicha hisoblash asosida takomillashtirilgan;

O'zbekiston Respublikasida aholining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni tahlili asosida aholi punktlarini joylashtirishning optimal chegarasi aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasi aholi manzilgohlarining balandlik yaruslari bo'ylab joylanishining tabiiy-geografik qoniniyati tahlili asosida 1:450000 masshtabda istiqboldagi kartasi yaratilgan;

Respublika aholisining zichligi landshaft turlari doirasida aniqlangan va 1:2500000 masshtabda kartasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlillar va statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, asosiy natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholi joylashishiga tabiiy-landshaft omilining ta'sirini baholashda, aholi zichligini ortishi natijisida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning tabiiy demografik asoslari mavjudligi, aholini hududiy tashkil etishda tabiiy-landshaft yondoshuvining ahamiyatli ekanligi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, avvalo, olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida aholining hududiy tashkil etilishini takomillashtirishga, landshaft turlarining tabiiy demografik imkoniyatlaridan foydalanishga oid maqsadli dasturlarini ishlab chiqish uchun geografik axborat tizimlar (GAT) bazasi yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasining aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirish va uni optimallashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

aholi zichligini hisoblashning ma'muriy birliklar aholisini uning maydoniga taqsimlash asosidagi uslubiga o'zgartirish kiritilib, aholi zichligini ma'muriy birliklarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha hisoblash uslubi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining amaliy

faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025 yil 25 apreldagi 01/00-02/09-3868-son ma'lumotnomasi). Natijada, har bir viloyatning sug'oriladigan yerlari bo'yicha aholi zichligini hisoblashga erishilgan va bu uslub sug'oriladigan yerlar bo'yicha zichlikni aniqlash imkonini bergan;

aholi zichligini hisoblashning an'anaviy uslubiga aniqlik kiritish maqsadida jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida aholi joylashuviga "cheklovchi" ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy omillarni (qoyali, kuchli parchalangan tog'lar, qum barxanli, suvsiz jazirama cho'llar) e'tiborga olish bo'yicha ishlab chiqilgan yangi uslubiy yondashuvdan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining amaliy faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025 yil 25 apreldagi 01/00-02/09-3868-son ma'lumotnomasi). Natijada, turli maqsadlarda yer ajratib berishda hududning tabiiy-geografik xususiyatlarini hisobga olish zaruratining ilmiy jihatlarini asoslash imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasida aholining hududiy joylashuviga birlamchi ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik (geomorfologik, iqlimiy, tuproq, gidrologik va gidrogeologik) omillarning sifat ko'rsatkichlarini baholash asosida ajratilgan 4 ta landshaft turi bo'yicha olingan natijalari amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligining 2025 yil 5 maydagi 03/08-4742-son ma'lumotnomasi). Natijada, har bir aholi punktlarining landshaft turlari doirasidagi aholi zichligini aniqlash, demografik yukni hisoblashga erishilgan hamda 1:2500000 masshtabli "O'zbekiston Respublikasi aholisining landshaft turlari bo'yicha joylanishi" nomli kartasini yaratish imkonini bergan;

O'zbekiston Respublikasi aholi manzilgohlarining balandlik yaruslari bo'ylab joylanishining tabiiy-geografik qonuniyati tahlili asosidagi aniqlangan aholi yashashi uchun qulay bo'lgan balandlik chegarasi amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligining 2025 yil 5 maydagi 03/08-4742-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston aholisining joylanishi uchun qulay geografik hududlarini aniqlash imkoni yaratilgan va 1:450000 masshtabli "Qashqadaryo viloyati aholisining joylanishi" kartasini yaratish imkonini bergan;

respublika aholisining zichligi amaliyotda foydalanib kelinayotgan ma'muriy birliklardan tashqari aniqlangan landshaft turlari doirasida yangi uslubiyot bo'yicha hisoblash asosidagi natijalari amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025 yil 23 maydagi 03-03/1-03/3-5044-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'muriy tumanlarda aholining kichik hududiy xususiyatlarini ajratib olish va aholi punktlari ijtimoiy-ekologik vaziyatini takomillashtirishda hududning tabiiy-demografik imkoniyatidan foydalanish imkonini bergan;

aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda har bir landshaft turining tabiiy-demografik imkoniyatidan kelib chiquvchi ilmiy

asoslangan taklif va tavsiyalaridan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025 yil 23 maydagi 03-03/1-03/3-5044-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni oshirish, hududlar aholisini qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirishni majmual va hududiy baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 35 ta ilmiy ish, shulardan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 11 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 240 betdan iborat bo'lib, shundan matn qismi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Aholi manzilgohlarini geografik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlanib, unda aholining hududiy tashkil etilishini o'rganishning geografik yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi. Iqtisodiy geografiyada hududiy tashkil etishning mazmuni va mohiyati, aholini hududiy tashkil etish masalalarining respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlarini tomonidan o'rganilishining yo'nalishlariga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Aksariyat fanlarda aholi ishchi kuchi, mehnat resursi, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning omili sifatida qaralib, bugungi jamiyatda ko'proq ijtimoiy (sotsial) tushuncha sifatida o'rganiladi. Jamiyatning sotsiallasuvi jarayonida aholining yashash sharoiti va turmush tarzi, takror barpo bo'lishi, hududiy joylashuvi kabi jihatlarining boshqa omillarga (aholining diniga, salomatligiga, dunyoqarashiga, ekologiyaga bo'lgan munosabatiga) ta'sirini

tadqiq etish ustuvorlashib bormoqda. Aholining bunday jihati hozirda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ijtimoiylashishiga, ekologiyalashishiga, gumanitarlashishiga sabab bo'lmayotganligi o'rganildi. Aholi geografiyasida aholi punktlari shakllanishi, joylashuvi va rivojlanishi muammolari asosiy o'rin egallaydi. Iqtisodiy geografik tadqiqotlar doirasida "aholi joylashuvi" tushunchasi ikki xil qo'llaniladi. Birinchisida, u aholining yashash joylari bo'yicha joylanishi tushuniladi. Bunda yashash joy sifatida ko'cha, mahalla, qishloq, tuman, hudud, mintaqa, mamlakat yoki qit'a tushunilishi mumkin. Ikkinchisida, «aholi joylashuvi» turg'unlik va dinamik o'sish tushunchalarida o'z aksini topadi. Aholi punktlari va ularning rivojlanish jarayoni ichki tizimlar va elementlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab va ko'pincha qarama-qarshi xususiyatiga ega bo'lgan hudud ichki potensialida namoyon bo'ladi. Ushbu munosabatlar ma'lum bir geografik makonning xususiyatini belgilab beradi.

Aholi qamrovining umumiy yeg'indisiga nisbatan qo'llaniluvchi "jamo", "sotsium" yoki "jamiyat" termini muhim iqtisodiy geografik atama hisoblanib, "jamiyatni hududiy tashkil etish" bevosita o'zak tushunchalarning (aholi, sanoat, transport...) umumiy yig'indisini hamda ularni tashkil etishni ifodalab keladi. Jamiyat hayotini hududiy tashkil etish, turli geografik jarayonlarni boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani rivojlantirishning eng istiqbolli yo'lidir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, jamiyatni hududiy tashkil etish, aholini hududiy tashkil etish kabi tushunchalarning mazmuniga izoh berish, ular o'rtasidagi nozik farqlarni ajratish muhim hisoblanadi. Lekin bu ikki tushuncha bir-biriga shu qadar birikib ketganki, jamiyatni aholisiz, aholini jamiyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Aholini hududiy tashkil etish iborasi oddiy aholi joylashuvi, uning hududiy tarkibidan ancha yuqori turishi avvalgi tadqiqotlarda ta'kidlangan. Sababi aholi punktlari uni boshqarish maqsadida tashkil etiladi. Bunday shakldagi aholi joylashuvi maxsus hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni shakllantiradi. Aholini hududiy tashkil etish bu – uning joylashish jarayonlari bilan mavjud hududiy tarkibini optimallashtirish maqsadida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishni ta'minlash uchun tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy yo'nalishdir.

Aholini hududi tashkil etilishida albatta aholi geografiyasi va demografiya katta ulushga ega bo'lsa, tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, atropologiya, etnografiya, statistika va ekologiya ham ma'lum ma'noda xissaga ega bo'ladi. Aholini hududiy tashkil etish bu bevosita jamiyatni hududiy tashkil etish bo'lgani holda, bugungi ijtimoiy jamiyatda aholini u yoki bu holda tadqiq etishga qaratilgan fanlarning barchasi mazkur tashunchaga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ushbu tushunchani tor ma'noda faqat aholi geografiya va demografiya sifatida qabul qilinsa, keng ma'noda barcha ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan birgalikdagi tushuncha sifatida qaralishi lozim.

Aholi joylanishidagi omillarni tahlilidan ko'rinadiki mavjud muammolarning hududiy jihatlarini o'zaro bog'liqlikdagi murakkab jarayonni yuzaga keltiradi. Shuning uchun bu muammolarni, bir-birini to'ldirib boruvchi 3 ta bosqichda tadqiq etish taklif qilinadi (1-rasm):

- Aholini hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni o'rganish, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini baholash. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib asosiy e'tibor tabiiy omillarga qaratiladi;

- Aholini mavjud hududiy tashkil etilishini baholash, yangicha uslublarni qo'llash, tahlil qilish, diagnoz qo'yish, muammolar va muammoli holatni aniqlash;

- Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.


Aholining bugungi hududiy joylanishi qonuniyatlarini, mavjud holatini aniqlash, tadqiq etish uchun turdosh fanlardan olingan materiallar bilan birga, geografiya fanlari tizimidagi tabiiy geografiya (landshaftshunoslik, iqlimshunoslik, gidrologiya), iqtisodiy geografiya (qishloq xo'jaligi, sanoat, shaharlar geografiyasi, demografiya), ijtimoiy geografiya (xizmat ko'rsatish geografiyasi, rekreatsiya va turizm geografiyasi) fanlari tarkibiga kiruvchi bir qator yo'nalishlarda olingan nazariy materiallar, tahlillar va baholash natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aholini hududiy tashkil etish bo'yicha tadqiqotning bir birini to'ldirib boruvchi uchta bosqichda amalga oshirishda dastlabki axborot-tahliliy qismda aholini hududiy tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar tahlil etiladi. Birinchi, aholining hududiy tarkibiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, ikkinchi – tabiiy geografik (landshaft), uchinchi iqtisodiy omillar o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu tadqiqot maqsadidan kelib chiqib asosiy e'tibor tabiiy-geografik omiliga qaratiladi. Tabiiy geografik omillaridan hududning geomorfologik (joyning mutloq balandligi, relyef qiyaligi va parchalanganligi), iqlimiy (gidrotermik koeffitsent, +10° dan yuqori kunlarning miqdori), tuproq (tuproqning bonitet bali, hududning sug'orilish darajasi), gidrologik (gidrografik to'ring zichligi, hududning tabiiy drenajlik holati) ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Tadqiqotning muammo-maqsadli qismida yuqoridagi omillar ta'sirida shakllangan aholining mavjud hududiy tashkil etilishi majmuali-geografik asosda baholanadi. Baholash natijalari aholining hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan muammo va muammoli holatlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday muammolar nazariy jihatdan yuqorida sanab o'tilgan butun dunyo uchun xos bo'lgan muammo o'xshash bo'lsada, lekin ularni vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar va o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari aniqlanadi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun muammolar daraxti usulidan foydalanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlar majmuasi maqsadli dasturi ishlab chiqiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda aholi joylanishi va uni hududiy tashkil etish bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va landschaft tadqiqotlari olib borish zaruriyati tug'ilmoqda. Xususan, bu borada Markaziy Osiyoning eng katta demografik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasida yuqoridagi masala muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur bobda aholining hududiy tashkil etilishini tadqiq etishning usullari ko'rib chiqiladi.



1-rasm. Aholini hududiy tashkil etilishining tadqiq qilish bosqichlari

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Aholi joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar**» deb nomlangan. Unda landshaft turlari bo'yicha aholi zichligini aniqlashning bugungi zarurati, landshaftlarda aholi joylanishini tadqiq etishning dolzarbligi, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda landshaftlarni aholi joylanishini tadqiq etishning bosqichlariga tavsif berildi. Shuningdek, aholining joylashuvi nuqtai-nazardan landshaftlarni ajratish, ajratilgan landshaft turlarining maydoni va aholisini hisoblash, landshaft turlari aholining joylanishini qulaylik jihatdan baholash, mamlakatda shakllanayotgan yangi iqtisodiy sharoitlarda aholi manzilgohlarining joylanishi, shaharsozlik maqsadlarida aholini joylashtirish va aholi joylanishiga ta'sir etuvchi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar misollar bilan tahlil etildi.

Mamlakatimiz tuproqning agrar imkoniyatlari (bonitet bali) eng yuqori bo'lgan tumanlarda aholi va xo'jalikning joylashish ko'rsatkichlari ham yuqori ekanligini statistik ma'lumotlardan bilish mumkin. Jomboy, Kattaqo'rg'on, Denov, Boysun, Parkent, Asaka, Oltinko'l, Toshloq, Uchko'prik, Buvayda kabi ma'muriy tumanlarda aholi va xo'jalikning joylashish darajasi tuproqning bonitet baliga to'g'ri proporsional ekanligi fikrimizning isbotidir. Albatta, landshaftning har bir komponentini xo'jalik va aholining joylashishiga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali «yer sig'imi» meyorini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu holatda hududlarni ijtimoiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdagi geografiya fanini vazifalari yanada aniq namoyon bo'ladi.

Aholi maskanlari shakllanishida asosiy ishlab chiqarish turi bo'lgan qishloq xo'jaligini ta'siri yuqori bo'lgan hududlarda yer-suv resurslarini yuqori iqtisodiy salohiyatini kuzatish mumkin. Mamlakatimizda tuproqning unumdorlik darajasi yuqori bo'lgan ma'muriy tumanlarida tuproq bonitet baliga bevosita, shu joyning gidrologik va gidrogeologik sharoiti ham ta'sir ko'rsatadi. Asaka tumanida 1 km kv maydonga qariyb 1320,7 kishi, Toshkent tumanida 1225,9 kishi, Shahrixon tumanida 1125,3 kishi, Namangan tumanida 948,4 kishi, Zangiota tumanida 916,6 kishi to'g'ri kelishi ushbu hududlarda tabiiy agrar imkoniyatning (tuproq bonitet bali, gidrologik va gidrogeologik sharoiti) yuqori bo'lganligidan dalolatdir.

Tadqiqotda landshaft turlari bo'yicha aholining joylanishini tahlil etish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Milliy Atlasining "Relyef plastikasi asosida tuzilgan landshaft morfologik xaritasi" asos sifatida olindi va unda aynan landshaft turlari bo'yicha tekislik va tog' mintaqasi uchun 4 ta (1. cho'l; 2. cho'l-dasht va quruq dasht; 3. o'rmon-o'tloqi dasht; 4. dasht, o'tloqi-dasht va glyatsial nival) landshaft turlari asosida tadqiqot olib borildi. O'zbekiston milliy atlasida ma'lumotlari (N.A.Kogay, L.N.Babushkin, Sh.S.Zokirov, A.A.Soatov, R.A.Ibragimova, M.M.Avezovlar tomonidan tuzilgan) asosida aholi va aholi manzilgohlarini tahlili nuqtai-nazaridan ajratib olingan O'zbekistonning 4 ta landshaft turlari relyef xususiyatlari quyidagicha ko'rinish oladi:

- 1) Cho'l zonasi: 500 metrgacha, 328595,99 km kv;
- 2) Tog' oldi cho'l-dasht va quruq dasht zonasi: 450-1000 metr, 84237,48 km kv;
- 3) O'rtacha baland tog'larning o'rmon-o'tloqi dasht zonasi: 950-1900 metr, 28339,37 km kv;

4) Baland tog'larning dasht, o'tloqi dasht va glyatsial nival zonasi: 1900 metrdan baland, 6880,38 km kv (1-jadval).

Yuqoridagi hudud tiplari bo'yicha O'zbekistonda eng katta maydon cho'l zonasiga to'g'ri keladi. Uning maydoni respublika hududining 73,34 foizini yoki 328959,99 km kv ni tashkil etmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakatda cho'l landshaft turi katta maydonni egallaydi. Ammo bu tur landshaftlari katta maydonni egallagani bilan hududda aholi va aholi maskanlari tashkil etilishi uchun qulay sharoit shakllanmagan. Daryo, soy havzalariga yaqin shu turdagi landshaftlarda (sug'oriladigan yerlar mavjud joylar) nisbatan aholi maskanlari tashkil bo'lishi uchun sharoit yuzaga kelgan.

1-jadval

Landshaft turlarining tavsifi

№	Hudud tiplari	Maydoni (kv km)	Maydon ulushi (foiz his.)	Hudud yarusi
1.	Cho'l zonasi	328959,99	73,34	500 metrgacha
2.	Tog' oldi cho'l-dasht va quruq dasht zonasi	84237,48	18,80	450-1000 metr
3.	O'rtacha baland tog'larning o'rmon-o'tloqi dasht zonasi	28339,37	6,33	950-1900 metr
4.	Baland tog'larning dasht, o'tloqi dasht va glyatsial nival zonasi	6880,38	1,54	1900 metrdan baland

Jadval muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Tadqiq etilayotgan landshaft turining ikkinchi tipi "Tog' oldi cho'l-dasht va quruq dasht" zonasi mamlakatdagi eng asosiy aholilashgan hududdir. Bunga sabab esa hududning geomorfologik tuzilishidagi nishablik aholi va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun eng qulay ekanligida. Shuning uchun bu hududlarda mamlakat aholisining 2024 yil hisobi bo'yicha qariyb, 28,5 mln dan ortiq aholisi, yoki 77,45 foizi istiqomat qilmoqda. Eng ahamiyatli jihati, aholisi 100 ming kishidan oshgan katta, yirik, juda yirik va millioner shaharlarning (jami 18 ta) 14 tasi shu hududlarga mos keladi. Mamlakat poytaxti ham aynan shu landshaft turiga mos keladi.

Shuningdek, ushbu bobda geomorfologik, iqlimiy, tuproq va gidrologik ko'rsatkichlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini jamlanib, integrallashgan hisob usuli yordamida mamlakat aholi joylashishiga ta'sir etuvchi omillarni reyting bahosi bo'yicha ham 4 ta landshaft turlarini baholash uslubiyoti ko'rib chiqildi. Aholining joylashishiga ta'sir etuvchi landshaft omillarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini jamlanib, umumiy ball va har bir komponent bo'yicha tavsiflovchi ko'rsatkichlar ishlab chiqildi va baholash shkalasi hosil qilindi.

Mazkur bobning keyingi qismlarida aholi joylanishining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari ham o'rganildi. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuviga, shahar turmush tarzining kengayishi, shahar joylarda iqtisodiyot tarmoqlarining takomillashuvi va ish o'rinlarining ko'payishi natijasida shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi muntazam ortib bormoqda. Xususan, shahar aholi punktlari soni 1959 yilda 101 ta, 1970 yilda 124 ta, 1989 yilda 221 ta, 2008 yilda

233 ta, 2009 yilda 1199 ta, 2015 yilda 1204, 2020 yilda 1187 ta, 2024 yilda esa 1178 taga yetdi. 1990-2009 yillarda respublikadagi shaharlar soni 5 taga kamaygan bo'lsa, shahar tipidagi posyolkalari soni esa 976 taga ko'paygan. 2010-2024 yillarda resublika bo'yicha jami shahar aholi punktlari soni 6 taga kamaygan bo'lsa (1184 tadan 1178 taga), bu ko'rsatkich mazkur yillar oralig'ida Toshkent viloyatida 8 tani (113 tadan 105 taga), Qashqadaryo viloyatida 6 tani (135 tadan 129 taga), Namangan viloyatida 5 tani (128 tadan 123 taga) tashkil etdi.

Shaharlar soni va tarkibining o'zgarishiga shaharlar aholisi milliy tarkibi, mexanik harakatda ketuvchilarning ko'pligi, tabiiy harakat ko'rsatkichlarining kichikligi sabab bo'ldi. Natijada, umumiy mamlakat urbanizatsiya darajasi pasaydi, qishloq aholisining shahar aholisiga nisbatan ko'payib borishi ortdi. Hozirgi kunga kelib, shahar tipidagi aholi punktlari soni 1058 tani, shaharlar soni 120 tani tashkil etmoqda. Respublikadagi mavjud shahar tipidagi posyolkalar jami shahar aholi punktlarining 89,8 foizini, aholisining 37,5 foizini qamrab oladi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi shaharlar va shaharchalar aholisi (01.05.2024 y.)

№	Hududlar	Shaharlar		Shaharchalar	
		Soni	Aholisi (kishi his.)	Soni	Aholisi (kishi his.)
1.	O'zbekiston R.	120	11519492	1058	6904302
2.	Qoraqalpog'iston R.	12	791291	26	175974
3.	Andijon vil.	11	879555	79	854962
4.	Buxoro vil.	11	529527	68	235913
5.	Jizzax vil.	6	289163	42	361149
6.	Qashqadaryo vil.	12	787534	117	704106
7.	Navoiy vil.	7	340416	46	180178
8.	Namangan vil.	8	1025233	115	918668
9.	Samarqand vil.	11	896762	88	616211
10.	Surxondaryo vil.	8	443369	112	573354
11.	Sirdaryo vil.	5	208419	25	198932
12.	Toshkent vil.	16	1011361	89	487548
13.	Farg'ona vil.	9	1093211	194	1216763
14.	Xorazm vil.	3	267267	56	380544
15.	Toshkent sh.	1	2956384	-	-
	Ulushi:	10,2	62,5	89,8	37,5

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Ayrim viloyatlarda shaharlarning kamayishi bilan birga boshqa viloyatlarda o'sish ham yuzaga kelgan. Bir qator viloyatlarda xususan, Navoiy viloyatida 9 taga, Buxoro viloyatida 6 taga, Sirdaryo viloyatida 4 taga shahar aholi punktlari soni ortgan. Asosiy o'zgarishlar shaharchalar tarkibida kuzatilgan. Shaharlar tarkibida birgina o'zgarish mavjud bo'lib, u Navoiy viloyati G'ozg'on shahriga tegishli bo'lib, 2020 yilda shaharlar tarkibiga qo'shilgan.

O'zbekiston mavjud 120 ta shaharning Qoraqalpog'iston Respublikasi (12 ta), Toshkent (16 ta), Qashqadaryo (12 ta), Andijon (11 ta), Buxoro (11 ta), Samarqand

(11 ta) viloyatlarining har biriga 10 tadan ortiq shaharlar to'g'ri keladi. Eng kam shaharlar esa Sirdaryo va Xorazm viloyatlariga to'g'ri kelib, mos ravishda 5 va 3 tani tashkil etadi. Barcha shaharlarni mavjud klassifikatsiya bo'yicha tasniflashtirsak, millioner shaharlar 1 ta, juda yirik shaharlar 2 ta, yirik shaharlar 7 ta, katta shaharlar 9 ta, o'rta shaharlar 24 ta, yarim o'rta shaharlar 49 ta, kichik shaharlar 25 ta, mayda shaharlar 3 tani tashkil etadi.

Jami shaharlarning aholisi birgalikda 11,5 mln kishini tashkil etib, u respublika jami aholisining 31,3 foizini tashkil etadi. Toshkent shahri millioner shahar sifatida jami 120 shaharning 1/4 qismi aholisini ya'ni, 25,6 foiziga egalik qiladi. Juda yirik shaharlar 10,8, yirik shaharlar 19,3, katta shaharlar 12,2, o'rta shaharlar 15,0, yarim o'rta shaharlar 13,6, kichik shaharlar 3,3, mayda shaharlar 0,2 foiziga egalik qilmoqda.

Dissertatsiyaning «**Hududda aholi zichligini aniqlashning zamonaviy uslublari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan va ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik jihatdan zaruriyligi asoslangan aholi zichligini hosil qilish uslublari ko'rib chiqildi.

Hududning demografik sig'imini, aholi zichligini hisoblash birinchi bo'lib, P.P.Semenov Tyan-Shanskiy tomonidan taklif etilgan. Bugungi kunda esa aholi zichligini o'rganishga alohida va o'ziga xos yangicha geografik yondashuv zarurligi kuzatilmoqda. Chunki aholi zichligini hisoblash iqtisodiyotda ma'muriy hududiy birliklar doirasida va yalpi ko'rsatkichlarda qabul qilinadi. Bu ayni vaqtda hududlarning aniq tafovutlarini ochib bermaydi va bizga hudud haqidagi birlamchi ko'rsatkichlarni beradi, xolos. Aslida esa ma'lum bir ma'muriy birlikning turli relyef, iqlim, tuproq zonalari bo'yicha alohida alohida aholini zichligini hisoblash katta amaliy ahamiyat kasb etishi mutaxassislar tomonidan ancha oldindan taklif etilmoqda. Bundan tashqari, ruxsat etilgan zichlik, kritik zichlik, ijtimoiy aholi zichligi (Е.Слуцкий) kabi birliklarni hisoblashning yutuqlari asoslanadi.

Ijtimoiy aholi zichligi, umumiy (tabiiy) zichlikdan farqli o'laroq, o'rganilayotgan hududdagi aholining notekisligini hisobga oladi. Ammo shuni hisobga olish kerakki, ushbu ko'rsatkichning qiymati o'rganilayotgan hudud qaysi qismlarga bo'linganligiga bog'liq. Masalan, O'zbekiston hududi uchun mintaqaviy qismlarni ajratsak yoki ma'muriy tumanlar darajasiga tushilsa, butunlay boshqacha ijtimoiy zichlikka ega bo'lamiz. Ammo, qoida tariqasida, ijtimoiy zichlik ko'rsatkichi o'rganilayotgan hudud aholisining ko'pchiligi uchun qanday zichlik xosligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Xususan, mamlakatimizning ijtimoiy zichligini hisoblashda qaysi ma'muriy birliklarni hisobga olmaylik, u o'rtacha zichlikdan yuqori bo'ladi. Biroq, bu ko'rsatkich g'oyasi umumiy zichlikni hududning o'rtacha qismi sifatida emas, balki xarakterli zichlikning o'rtacha qiymati sifatida taqbiq etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi o'rtacha aholi zichligi 2024 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 82 kishini tashkil etadi (3-jadval). Lekin, har bir viloyat va Qoraqolpog'iston Respublikasining o'rtacha aholi zichligi ko'rsatkichlari umumlashtirib, hosil bo'lgan qiymat 13 ga bo'linsa, (12 ta viloyat va 1 ta Qoraqolpog'iston R.) mamlakat o'rtacha ijtimoiy aholi zichligi 246,9 kishini tashkil etadi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasining o'rtacha va ijtimoiy aholi zichligi tafovutlari

№	Hududlar	Maydoni (ming km ²)	Aholi soni (ming k.)	Aholi zichligi (kishi)	Ijtimoiy aholi zichligi (kishi)
1	O'zbekiston R.	448,97	36799,8	82,0	246,9
2	Qoraqalpog'iston R.	166,59	2002,7	12,0	86,1
3	Andijon	4,30	3394,4	789,4	714,5
4	Buxoro	40,22	2044,0	50,8	102,3
5	Jizzax	21,21	1507,4	71,1	109,3
6	Qashqadaryo	28,57	3560,6	124,6	149,2
7	Navoiy	111,10	1075,3	9,7	42,5
8	Namangan	7,44	3066,1	412,1	555,5
9	Samarqand	16,77	4208,5	251,0	354,0
10	Surxondaryo	20,10	2877,1	143,1	197,8
11	Sirdaryo	4,28	914,0	213,6	182,6
12	Toshkent	15,14	3051,8	201,6	327,8
13	Farg'ona	6,76	4061,5	600,8	542,5
14	Xorazm	6,05	1995,6	329,9	448,9

Jadval O'zb R Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Maydon jihatidan eng katta sug'oriladigan yerlar Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelsada, viloyat maydonida sug'oriladigan yerlarning ulushi bo'yicha Sirdaryo viloyatiga oldindadir. Bu yerda mavjud 427,6 ming ga yerning 67,2 foizi sug'oriladigan yerlar xissasiga to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rinlarni Farg'ona vodiysining uch viloyati, ya'ni Andijon (65,2 foiz), Farg'ona (54,6 foiz) va Namangan (39,0 foiz) viloyatlari egallaydi. Aholi jon boshiga sug'oriladigan yer maydonlari eng past ko'rsatkichlari albatta Farg'ona vodiysining uch viloyatiga (Andijon, Farg'ona, Namangan) hamda Samarqand viloyatiga to'g'ri keladi. Andijonda, 12,11 ga, Samarqandda 11,09 ga, Farg'onada 11,02 hamda Namanganda 10,58 ga tashkil etadi. Bu borada Andijon viloyati aholi jon boshiga sug'oriladigan yerlar bilan eng kam ta'minlangan viloyatdir. Bu holat aholini sug'oriladigan yerlardan foydalanishni oqilona tashkil etishni majmuali o'rganishni taqozo etadi.

4-jadvaldan ko'rish mumkinki, respublikada mavjud 4342,5 ming gektar sug'oriladigan yerlarning ulushi mavjud viloyatlar kattaligiga bog'liq emas. Masalan, hududi jihatidan 4-o'rinni egallovchi Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlar maydoni bo'yicha respublika viloyatlarida 1-o'rinni egallaydi. Unda bugungi kunda 513,5 ming gektar sug'oriladigan yerlar bo'lib, sug'oriladigan yerlarning bo'yicha respublikaning 11,82 foiz ulushiga ega. Sug'oriladigan yerlarning eng kam ulushi maydoni jihatidan respublikada ikkinchi o'rinni (viloyatlar ichida 1-o'rinni) qayd etadigan Navoiy viloyatiga tegishli. Mazkur viloyatda respublikaning atiga 2,9 foiz sug'oriladigan yerlari to'g'ri kelmoqda. Bu jihatdan mazkur paragrafning o'rinli jihati shundaki, aholi zichligi bo'yicha statistika va boshqaruv idoralarida eng past ko'rsatkich bilan qayd etiladigan va bu jihatdan go'yoki hududda ijtimoiy muammolar kam sifatida e'tirof etiladigan Navoiy viloyati aslida, eng katta ijtimoiy muammolarga ega. Viloyatda

1 gektar sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keluvchi zichlik 8,53 kishiga to'g'ri kelib, bu jihatidan respublikaning 7 ta hududidan ko'ra tig'izroqdir.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlar maydoni va uning aholiga nisbatan ko'rsatkichlari

№	Hududlar	Umumiy yer maydoni (ming ga his.)	Maydonning respublikadagi ulushi	Sug' oriladigan yerlar maydoni (ming ga his.)	Sug' oriladigan yerlarning respublikadagi ulushi	Aholi soni (01.01.2024)	Aholining respublikadagi ulushi	1 ga sug' oriladigan yerga to' g' ri keluvchi aholi soni
1.	Qoraqolpog'iston R.	16656,1	37,10	517,0	11,91	2002,7	5,44	3,87
2.	Andijon	430,3	0,96	280,4	6,46	3394,4	9,22	12,11
3.	Buxoro	4183,1	9,32	280,2	6,45	2044,0	5,55	7,29
4.	Jizzax	2117,9	4,72	304,9	7,02	1507,4	4,10	4,94
5.	Qashqadaryo	2856,8	6,36	513,5	11,82	3560,6	9,68	6,93
6.	Navoiy	10948,1	24,39	126,0	2,90	1075,3	2,92	8,53
7.	Namangan	743,3	1,66	289,7	6,67	3066,1	8,33	10,58
8.	Samarqand	1677,3	3,74	379,4	8,74	4208,5	11,44	11,09
9.	Surxondaryo	2009,9	4,48	325,0	7,48	2877,1	7,82	8,85
10.	Sirdaryo	427,6	0,95	287,2	6,61	914,0	2,48	3,18
11.	Toshkent	1515,6	3,38	393,7	9,07	3051,8	8,29	7,75
12.	Farg'ona	675,3	1,50	368,7	8,49	4061,5	11,04	11,02
13.	Xorazm	608,2	1,35	268,4	6,18	1995,6	5,42	7,44
14.	Toshkent sh.	43,5	0,10	8,4	0,19	3040,8	8,26	362,00
		44892,4	100,0	4342,5	100,0	36799,8	100,0	8,47

Jadval O'zbekiston Respublikasi Yer fondi va O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Sug'oriladigan yerlar miqdorining qanchalik ko'p bo'lishi aholi va aholi punktlari sonining ortishiga olib keladi. Bundan tashqari mamlakatimiz kontinental iqlim sharoitida landshaftning boshqa komponentlari ham yuqoridagi kabi aholi va xo'jalikning joylashishiga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazadi. Bizning arid mintaqamizda gidrologik omilining rolini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yuqoridagi omillar aholi va xo'jalikning mamlakat miqyosida joylashishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatsa, mintaqaviy masshtabda o'rganilganda, tuproq omilining ta'siri ham sezilarli ekanligini ko'rish mumkin.

Sug'oriladigan yerlar miqdori va hududda mavjud aholi ko'rsatkichlarini yanada chuqurroq tahlil etish maqsadida iqtisodiy geografiyada aholi jon boshiga sug'oriladigan yerlar maydonidan farqli ravishda 1 gektar maydonga to'g'ri keluvchi aholi soni ham hisoblanadi. Bu ikki ko'rsatkich bir-biriga teskari proporsianallikda rivojlanadi. Ya'ni, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi sug'oriladigan yerlar qancha kamaysa, 1 ga maydonga to'g'ri keluvchi aholi soni ortib boradi.

Mamlakatimizda o'zining maydoniga nisbatan eng katta sug'oriladigan maydonlarga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi viloyatlarining umumiy yer maydoni

